

MULK HUQUQINING VUJUDGA KELISHNING HUQUQIY ASOSLARI**Xoldorov Kozimjon Nasimjon o'g'li**

Termiz davlat universiteti «Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi» kafedrası o'qituvchisi.

Telefon: +99897-111-94-96.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14558752>

Annotatsiya. Mulk huquqi har bir insonning asosiy huquqlaridan biri bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning muhim qismi hisoblanadi. Ushbu huquq shaxsga o'z mulkini egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish imkoniyatini beradi. Mazkur maqolada mulk huquqining mohiyati, uning turlari va qonuniy asoslari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mulk, ashyo, xususiy mulk, ommaviy mulk, iqtisod, davlat, jamiyat, foyda, daromad.

LEGAL FOUNDATIONS OF THE EMERGENCE OF PROPERTY RIGHTS

Abstract. Property rights are one of the fundamental rights of every individual and an important component of socio-economic relations. This right allows a person to own, use, and dispose of their property. This article highlights the essence of property rights, its types, and its legal foundations.

Keywords: property, thing, private property, public property, economy, state, society, benefit, income.

ПРАВОВАЯ ОСНОВА ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПРАВ СОБСТВЕННОСТИ

Аннотация. Право собственности является одним из основных прав каждого человека и важной частью социально-экономических отношений. Это право дает человеку возможность владеть, пользоваться и распоряжаться своим имуществом. В данной статье описывается сущность права собственности, его виды и правовые основы.

Ключевые слова: собственность, материал, частная собственность, общественная собственность, экономика, государство, общество, прибыль, доход.

KIRISH

Mulk huquqi - bu fuqarolik huquqining asosiy institutlaridan biri bo'lib, mulkdorga o'z mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish huquqini beradi. Ya'ni mulkdor o'z mulkini ijaraga berish, sotish, hadya qilish, meros qoldirish va boshqa qonuniy usullar bilan boshqaradi. Mulk huquqi mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi hamda boshqa qonun va qonunosti hujjatlari bilan himoya qilinadi. Mulk huquqi cheklanmagan, lekin qonunda belgilangan tartibda va jamiyat manfaatlari uchun cheklanishi mumkin.

1. O'zbekiston Respublikasida mulkiy huquq tan olinadi va qonun bilan muhofaza etiladi.

2. Mulkdor o'ziga tegishli mol-mulkka o'z ixtiyoriga ko'ra egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdor o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday xatti-harakatlarni qilishga haqlidir. U mulkdan qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday xo'jalik yoki boshqa faoliyatni amalga oshirishda foydalanishi mumkin..

3. Mulkdor o'ziga qarashli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqini boshqa shaxslarga berishga faqat o'zi haqlidir. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan hollarda, mulkdorning zimmasiga boshqa shaxslarning uning mulkidan cheklangan tarzda foydalanishiga yo'l qo'yish vazifasi yuklanishi mumkin.

4. Mulkdor O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan shartlar va doira chegarasida o'ziga tegishli mulkiy huquqni amalga oshirish paytida fuqarolarning mehnatidan foydalanish to'g'risida ular bilan shartnoma tuzishga haqlidir. Fuqaroning mehnatidan foydalanishga asos bo'lgan mulkning qay shaklda ekanligidan qat'i nazar, fuqaro O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar va kafolatlar bilan ta'minlanadi.

5. Mulkiy huquqning amalga oshirilishi atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, jismoniy, yuridik shaxslarning va davlatning huquqlarini buzmasligi hamda qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlariga putur yetkazmasligi kerak.¹

Mulk – bu shaxs yoki tashkilotning o'ziga tegishli bo'lgan moddiy va nomoddiy boyliklarga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqidir. Mulk insonlarning ehtiyojlarini qondirishda, iqtisodiy faoliyatda va jamiyatdagi munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki mulk qadimdan barcha kishilik jamiyatini va u jamiyat a'zolari hisoblangan fuqarolarni o'ziga tortib kelgan. Zero kishilarning o'zlari to'plagan mol-mulkga qarab ularning jamiyatdagi mavqeyi belgilangan. Jamiyatning iqtisodiy negizi mavjud mulkchilik munosabatlariga asoslanadi. Shu sababli mulk nafaqat yuridik mazmunga, balki iqsodiy ma'noga ham ega.² Mulk birinchidan kishining ashiyoga nisbatan egalik his-tuyg'usi bilan bog'liq, ikkinchidan ushbu ashiyo xususida kishilar o'rtasida vujudga kelgan munosabatdur. Demak bir so'z bilan aytgand, mulk ashiyo va unga nisbatan egalik hissi bilan bog'liq munosabatdur.

Ashyo-modddiy qiymatga ega bo'lgan hamda iqtisodiy munosabatlarning predmeti bo'ladigan, kishilarning ehtiyojlarini qondira oladigan narsalardir.

Mulk – moddiy va ma'naviy ne'matlarning muayyan kishilar egaligida bo'lishi va ular tomonidan o'zlashtirilishidir. Mulkka egalik huquqi hamda mulk ob'ektlariga egalik, ularni bo'lish, taqsimlash bo'yicha kishilar o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

¹ <https://lex.uz/acts/-111466>

² arxiv.uz

Mulk ob'ekti yer va yer osti boyliklari, korxona, bino, inshootlar, mashina va uskunalar, tayyor mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar, san'at va adabiyot asarlari, ilmiy va texnikaviy ishlanmalar va boshqalar bo'lishi mumkin. Moddiy va ma'naviy ne'matlarni amalda o'zlashtiruvchilar mulk sub'ektlari, ya'ni egalari hisoblanadi. Bularga ayrim kishilar, oilalar, jamoalar va davlat kiradi.

Mulkdan amalda foydalanib, bundan naf ko'rish mulkni iqtisodiy tasarruf qilish hisoblanadi.³

O'zbekiston Respublikasida mulk xususiy mulk va ommaviy mulk shakllarida bo'ladi.

Xususiy mulk – bu alohida shaxsga yoki tashkilotga tegishli bo'lgan mulk bo'lib, u mulk egasi tomonidan egalik qilinadi, undan foydalaniladi va tasarruf etiladi. Xususiy mulk shaxsning iqtisodiy va huquqiy erkinligini ta'minlaydigan asosiy huquqlardan biri hisoblanadi.

Xususiy mulkning asosiy xususiyatlari:

1. Mulk alohida bir shaxsga yoki yuridik shaxsga tegishli bo'ladi.
2. Xususiy mulk egasi mulkni boshqalarga sotish, hadya qilish yoki ijaraga berish kabi huquqlarga ega.
3. Mulk egasi mulkdan foyda olish yoki o'z ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanadi.

Xususiy mulkning turlari:

Uy-joy, yer uchastkalari, avtomobillar. Shaxsiy biznes va korxonalar. Pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar.

Xususiy mulk iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi, chunki mulkdor o'z boyliklarini oshirish uchun tadbirkorlik faoliyatini yuritadi va innovatsiyalarni joriy etadi. Shu bilan birga, mulkni huquqiy jihatdan himoya qilish mulkdorning iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi. Bu esa davlat va jamiyat uchun ham xalq uchun ham yaxshi bo'ladi, iqtisodiy o'sish oshadi yangi ishchi o'rnolari paydo bo'ladi soliq to'lovchilar soni ham ortadi.

Ommaviy mulk – bu davlatga yoki butun jamiyatga tegishli bo'lgan mulk bo'lib, u ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va umumiy manfaatlarni ta'minlash maqsadida foydalaniladi. Ommaviy mulkdan har bir fuqaro foydalanish huquqiga ega, lekin uning boshqarilishi va tasarrufi odatda davlat yoki jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat mulki – davlat ixtiyorida bo'lgan mulk, davlat hokimiyati organlari tomonidan tasarruf etiladigan monopollashgan mulkdir. Bunday mulk ob'ekti – yer, tabiat resurslari, asosiy vositalar, binolar, moliya, moddiy resurslar, axborot, moddiy va ma'naviy boyliklar bo'lishi mumkin. Bu mulk ijtimoiy ne'matlarni yaratishga xizmat qiladi. Davlat bor yerda uning mulki mavjud, lekin ushbu mulkning milliy iqtisodiyotdagi ulushi turli mamlakatlarda farqlanadi va

³ <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/mulk-tushunchasi-turlari>

mamlakat iqtisodiyotining modeliga bog'liq. Fuqarolik jamiyati doirasida davlat mulki tobora ijtimoiy yo'nalish olmoqda, ya'ni umummilliy manfaatlarni himoya qilishga yo'naltirilgan.

Mulk alohida shaxs yoki tashkilotga emas, balki butun jamiyatga xizmat qiladi. Har bir fuqaro undan foydalanishi mumkin, ammo bu foydalanish qonuniy cheklovlar va qoidalarga bo'ysunadi. Ommaviy mulkni boshqarish va saqlash davlat yoki maxsus organlar zimmasiga yuklatiladi. Har bir fuqaroning asosiy ijtimoiy xizmatlardan foydalanish huquqini ta'minlaydi.

Ommaviy mulk iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik uchun zamin yaratadi. Yirik ijtimoiy infratuzilmalar davlat mulkiga kirganligi sababli, ular mamlakat iqtisodiyoti rivojida muhim rol o'ynaydi. Ommaviy mulk jamiyatdagi barcha qatlamlarning manfaatlarini qondirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun muhim vositadur.

Ommaviy mulkning turlari:

1. Davlat mulki: Davlatga tegishli binolar, infratuzilmalar (masalan, yo'llar, ko'priklar), milliy bog'lar, konlar va energetika manbalari.
2. Jamoaviy mulk: Jamoat transporti, maktablar, kasalxonalar, kutubxonalar va boshqa ijtimoiy xizmatlar obyektlari.
3. Tabiiy resurslar: Suv, havo, o'rmonlar va boshqa tabiat boyliklari ommaviy mulk sifatida ko'riladi.

Barcha fuqarolar (fuqaroligi bo'lmagan shaxslar) mulkdor bo'la oladilar. Har bir shaxs davlat mulkidan foydalanadi, bu mulklarga ehtiyotkorlik va hurmat bilan qarashimiz kerak, kelajak avlod ham bu mulklardan foydalanishi uchun.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki- Mulk huquqi har bir davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida asosiy o'rin tutuvchi institutlardan biri bo'lib, uning shakllari va turlari jamiyatning turli qatlamlari manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida mulk huquqi Konstitutsiya va boshqa qonun hujjatlari bilan mustahkamlanib, har bir fuqaroning mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish huquqi kafolatlanadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi;
3. Mulk huquqi darslik: Yuridik fanlar doktori M.X. Baratov: Toshkent-2009.
4. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida»gi qonun;
5. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar>.